

## ADABIYOT DARSLARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH: METODIK ASOSLAR, JARAYONLAR VA BAHOLASH YONDASHUVLARI

Sohibjob To'xtayev

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adabiyot darslari orqali o'quvchilarda inson huquq va erkinliklariga oid tasavvurlarni boyitish hamda tanqidiy tafakkurni shakllantirishning maqsad, vazifa va mexanizmlari yoritiladi. Badiiy matn va qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, bahs-munozarada dalillashga, xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi bosqichma-bosqich metodik yondashuv taklif etiladi. Matnda tanqidiy fikrlashning dars jarayonidagi funksional roli (dialogik muhit, hamkorlik, refleksiya, baholash mezonlari), o'qituvchi–o'quvchi interaksiyasida tenglik va hamkorlik tamoyillari, hamda yozma savodxonlikni (referat, tavsifnoma, insho) rivojlantirish bilan bog'liq amaliy vazifalar tahlil qilinadi. "Aqliy hujum" kabi interaktiv metodlarning psixologik-pedagogik sharoitlari, o'quvchilarning xatodan qo'rqish sindromini yumshatish, qulay muloqot muhitini yaratish va turli tayyorgarlik darajalarini inobatga olgan differensial topshiriqlar orqali ishtirokni kengaytirish yo'llari ko'rsatiladi. Natijada, tanqidiy tafakkur o'quvchiga yangi vaziyatlarni obyektiv baholash, muammoli holatlarda strategik yechimlar ishlab chiqish, badiiy obrazlarga munosabat bildirish va shaxsiy intellektual pozitsiyani asoslash kompetensiyalarini shakllantirishi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy tafakkur; adabiyot darsi; badiiy tahlil; bahs-munozara; hamkorlik pedagogikasi; refleksiya; yozma savodxonlik; interaktiv metodlar; "aqliy hujum"; inson huquqlari; shaxsga yo'naltirilgan ta'lim; baholash mezonlari.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson erkinligi va huquqlariga oid bilim hamda tushunchalar o'quvchilar ongiga singdiriladi. Bunday pedagogik chora-tadbirlar adabiyot darslarida badiiy asar qahramonlarining xatti-harakatlari, kechinmalari tahlili orqali amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatning markaziga mustaqil fikr egasi bo'lgan o'quvchilarni qo'yish, ularni o'quv jarayonining hamkorlikdagi faol ishtirokchisi sifatida namoyon etish orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Binobarin, o'quvchilarda tanqidiy fikrni rivojlantirishning muhimligi quyidagi bir qator holatlar bilan izohlanadi:

– o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro tenglikka asoslangan hamkorlik munosabatlarini vujudga keltirish;

– tanqidiy va mustaqil fikrlashga intiladigan o'quvchilar orasida hamkorlik muhitini yaratish;

– adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'zligini ma'nalan rivojlantirishga yo'naltirish;

– o'quvchilarning referatlar, tavsifnomalar, matnlar, insholar yozish orqali yozma savodxonlik ko'nikma va malakalarini namoyon qilishlarini ta'minlash nazarda tutiladi.

So'nggi yillarda o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini nafaqat adabiyot darslarida, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishlarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarga nisbatan ham kuchli qiziqish yuzaga kelmoqda. Tanqidiy tafakkur

bilimlarni mustaqil, ongli o'zlashtirish jarayonida vujudga keladi. Demak, u o'quv jarayoni va jamiyat hayotini demokratlashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishda o'z ifodasini topadi. Ya'ni, hozirgi paytda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarga nafaqat yangi bilimlar va axborotlarni taqdim etish, balki ularning tanqidiy fikrlash tarzini ham rivojlantirish talab qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi talablariga ko'ra, istiqbolga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlashni rivojlantira olishi bilan ham ahamiyatlidir. Tanqidiy tafakkur o'quvchilarga yangi vaziyatlar, holatlar, hodisalarni ob'yektiv baholash, vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuning uchun ham ijtimoiy muhit o'zgarishlari jadal tarzda rivojlanayotgan hozirgi sharoitda o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish yanada ko'proq ahamiyat kasb etadi. Umuman, tanqidiy tafakkurga ega bo'lmagan shaxs yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olmaydi.

Maktab adabiy ta'limi jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini shakllantirish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni, har sohada o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish ko'nikmasini egallashlari lozim. Bu amalda badiiy asar qahramonlariga tanqidiy ravishda baho berishga asos bo'ladi.

2. Hukmni qat'iylashtirish va xulosa qilish usullari, ya'ni o'quvchi tanqidiy tafakkurning mahsuli sifatida bu jarayonda o'z faoliyatini ijodiy fikrlash sari yo'naltiradi. Demak, o'quvchilar qat'iy qoliplar va algoritmlarga asoslangan reproduktiv fikrlash tarzidan voz kechadilar.

3. Adabiyot darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash usuliga ko'ra badiiy asardagi jarayonlar, holatlar, hodisalarni tahlil qilish va ularga tanqidiy yondashish natijasida obyektiv baho beriladi.

4. O'z faoliyatiga tanqidiy yondashish talabiga ko'ra, o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlari, maqsadlari va faoliyatini tuzatish usullaridan samarali tarzda foydalanishi lozim.

Har qanday o'quv predmeti, shuningdek adabiyot o'qitish jarayonidagi o'ziga xoslik, ya'ni o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda quyidagi jarayonlarga tayaniladi:

o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga shunday vazifalar qo'yiladiki, ularning yechimi mustaqil fikrlashni talab qiladi;

dars jarayonida o'quvchilar ma'lum topshiriqlarni bajarish asnosida muayyan vazifalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'zaro faol hamkorlikka kirishadilar;

tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni natijalar, dalillar va alohida fikrlarni to‘plashdan iborat bo‘lmay, shaxsiy xulosa chiqarish va bayon qilish, axborotlarni qayta ishlashni nazarda tutadi;

bunday darslarda o‘qituvchining faoliyati natijalar samaradorligi darajasini baholash, faol tadqiqotchilik harakatlari orqali o‘qituvchi-o‘quvchilar orasida bahs-munozarani o‘rnatishdan iborat bo‘ladi;

tanqidiy tafakkur o‘quvchilardan qo‘lga kiritilgan natijalar asosida mustaqil xulosalar chiqarishni talab qiladi;

mas‘uliyatlik o‘quvchilarning muammolarni muhokama qilish uchun tayyor bo‘lishlari va yo‘nalganliklarini talab qiladi, ular mazkur muammolarning yechimidan o‘zlarini olib qochmasliklari ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, aksariyat adabiyot fani o‘qituvchilari o‘z faoliyatlarida turli o‘zgarishlarni amalga oshirish, o‘quv jarayoniga yangiliklar kiritishni xohlaydilar. Bundan ko‘zlangan maqsad, o‘quvchilarni o‘quv-tarbiya jarayoniga ko‘proq jalb etish hamda ularda mustaqil tafakkurni shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Chunki, o‘quvchilar mavzu materiallarini shunchaki tushunibgina qolmasliklari, balki ular o‘qituvchiga savollar berishlari, turli mavzularda bog‘lanishli matnlar yaratishlari, o‘z fikrlarini umumlashtirishlari, bahs-munozaraga kirishishlari, asar qahramonlariga tavsifnomalar yozishlari talab etiladi. Bu tarzda o‘quv jarayoni ko‘proq uslubiy-amaliy xarakterga ega bo‘ladi. Aynan shunday faol o‘quvchilar o‘quv-tarbiya harakatiga undaydigan mashg‘ulotlar davomida o‘quv materiallarini to‘liq o‘zlashtiradilar va uni o‘z faoliyatlari mohiyatiga singdira boradilar. Ta‘lim natijasida o‘zlashtirilgan bilim va tajribalardan o‘quvchilar muayyan davr mobaynida samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quv vaqtidan samarali foydalanish yo‘li bo‘lib, o‘qituvchi ta‘lim-tarbiya resurslaridan unumli foydalanishiga yo‘l ochadi.

Tanqidiy tafakkur hukmlar usuliga ko‘ra, har qanday xulosalarning haqqoniyligini ta‘minlaydi. Chunki, tanqidiy fikrlash jarayonida o‘quvchilar voqelikka chuqur o‘ylagan holda yondashadilar. Qarama-qarshi yondashuvlar esa muammoning maqsadini tushunish, asoslangan qarorlar qabul qilish va munosib baholarni shakllantirish imkonini beradi. Darvoqe, tanqidiy tafakkur, birinchi navbatda, avvalo tushuncha, so‘ng mushohada sifatida inson miyasida aql-idrok va ong-shuurda aks etadi. Tanqidiy tafakkur jarayonida insonning aql-idroki axborotlarni qayta ishlaydi. Bunday qayta ishlash g‘oyalarini rivojlantirish va samarali modellarga aylantirish maqsadida amalga oshiriladi. Psixologlarning tavsiflashlaricha, **tanqidiy tafakkur** – narsa va hodisalarning qimmatini, aniqligi, to‘g‘riligi, tabiiylikini baholash usuli. Tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan jarayonda har bir o‘quvchi voqea-hodisalar haqida

o‘zining aniq fikrlari va yondashuvlarini shakllantirishi hamda bayon eta olishiga o‘rgatib boriladi.

Demak, shuni alohida hisobga olish kerakki, tanqidiy tafakkur har doim o‘quvchilarning dialog, munozara bahs-tortishuv jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Muhokamalar jarayonida o‘zaro muvofiqlashtiriladi hamda to‘laqonli tarzda voqea-hodisalarni baholashga yo‘naltiriladi. Ya’ni, o‘quvchilarda bu holat quyidagicha tahlil etiladi:

birinchidan, bilimlarni o‘zlashtirishni faollashtirish, o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, o‘rganilayotgan o‘quv materialining maqsadini aniqlash;

ikkinchidan, yangi axborot ustida fikrlash, sinchiklab o‘qish orqali tanqidiy xulosalarga kelish, yozish mashqlarini amalga oshirish;

uchinchidan, o‘quv materiallari bilan bog‘liq holda vujudga kelgan shaxsiy xulosalar ustida tanqidiy o‘ylash hamda ularni tahlil qilish;

to‘rtinchidan, axborotni umumlashtirish, unga tayangan holda kahramon fazilatini baholash, uning yechimini ta‘minlovchi usullarni aniqlash, o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini chamalash va oydinlashtirish nazarda tutiladi.

Shu bois ham har bir o‘quvchi o‘z oldiga: *“Men nima uchun tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanaman?”* - degan savolni qo‘ya olishi kerak. Bunda, eng asosiysi, o‘quvchilarda kitob mutolaasi badiiy tahlil qilish, uning qahramonlariga tanqidiy baho berishga oid bilim va ko‘nikmalarning muayyan darajada egallanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘z ish faoliyati davomida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan usullardan unumli foydalana olishi davr talabidir.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko‘nikmalarini tarkib toptirish texnologiyasi yuqorida sanab o‘tilgan har to‘rt bosqichni izchil tarzda qamrab olishiga o‘qituvchilar muntazam harakat qilishlari talab etiladi. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydigan usullarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi o‘quv jarayonida amal qiladigan pedagogik-psixologik muhitga bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi quyidagilarni hisobga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1) ushbu muhitni vujudga keltirish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi hamda vazifalarni aniq taqsimlashi;

2) o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq faoliyatini aniq modellashtirishi, ular ijodiy fikrlash strategiyalarini taqdim qilganlarida qo‘llab quvvatlashi;

3) o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini, to‘g‘ri xulosalarini zarur shakl va ko‘lamda qo‘llab-quvvatlashlari;

4) o'quv jarayonida o'quvchilarning o'qituvchi bilan do'stona muloqot o'rnatishlari va o'zaro hamkorlikka kirishishlari uchun qulay pedagogik-psixologik muhitning vujudga keltirilishi ayni paytda tanqidiy fikrlash va baholashning samaradorligini ta'minlaydi.

Ma'lumki, o'quvchilarning bilim darajalari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham ayrim o'quvchilar badiiy asar qahramonlari haqidagi tanqidiy fikrlarini ochiq-oydin bayon qilishga cho'chiydilar. Ular xato qilishdan qo'rqib, boshqa sinfdoshlarining kulgisiga sabab bo'lishdan xavotirda bo'lishadi. Bu o'rinda o'qituvchining mashg'ulotlarda qulay, samimiy muloqotga asoslangan o'quv-tarbiya muhitini yarata olish mahorati qo'l keladi. Demak, o'qituvchi har doim salbiy holatlarni hech kimning sha'niga tegmagan holda, oqilona bartaraf etishi, samarali hamkorlik va o'zaro muloqot muhitini vujudga keltirishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyalardan unumli foydalana olishlari talab qilinadi. Masalan, "aqliy hujum" o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirishning samarali metodlaridan biridir.

Chunonchi, "aqliy hujum" jarayonini tashkil etishning asosiy qoidalari o'qituvchilar tomonidan bir nechta g'oyalarning ilgari surilishi bilan belgilanadi. Bu o'rinda ayrim g'oyalar ahamiyatli bo'lmasligi ham mumkin. Lekin g'oyalar qanday bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilar o'z aqlini ishga solishadi, fikrlashadi va turli farazlarni ilgari surishadi. Eng muhimi, o'qituvchi ularning o'z g'oyalarini o'rta tashlashlari uchun qulay psixologik-pedagogik vaziyatni ham yaratib bera olishi kerak bo'ladi.

Pedagogik jihatdan o'qituvchida badiiy asar haqidagi tasavvur, garchand u ancha oldin shakllangan bo'lsada, o'quvchilar ham ushbu asarni aynan o'qituvchisidek idrok etishi uchun intilishlari lozim. Biroq, tajribada o'qituvchilar bilan o'quvchilar orasida badiiy asarga nisbatan turlicha yondashuv kuzatiladi. O'quvchilar ko'proq badiiy asar qahramonlarining shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratadilar. O'qituvchi asarning mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning tafakkuri, ayniqsa tanqidiy tafakkuriga alohida e'tibor berib, asar qahramoni xislatidan axtaradi. Misol uchun "O'tgan kunlar" romanida Yusufbek hojining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib chiqib ketmasligi kerak" degan iborasiga tavsif bersak, o'quvchida o'zbek oilasidagi o'zbek fe'l-atvoriga havas bilan yondashish fikri bir umrga unutilmas xotira bo'lib qoladi.

O'quvchilar badiiy asar tahliliga sinfdan-sinfga o'tgan sari jiddiyroq yondasha boshlaydilar. O'qituvchining muayyan asar yuzasidan bergan savollariga o'quvchilar bir nechta variantlarda javob berishadi.

8–9-sinf o‘quvchilariga ularning badiiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning badiiy idroklari va tasavvurlarini muayyan maqsadga yo‘naltiradi.

Umuman olganda, mazkur usullardan samarali tarzda foydalanish uchun adabiyot o‘qituvchilar alohida metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalari bilan ta‘minlanishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish asnosida ularni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga yo‘naltirish texnologiyasini tashkil etishda qo‘llaniladigan bir qator metod va usullar o‘z nazariy hamda amaliy xususiyatlariga egadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T. O‘zbekiston, 1999. – 30 b.
2. Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ. Chteniye i pismo dlya razvitiya kriticheskogo myshleniya. Posobiye 1–7. – Bishkek, 2000. -235 s.
3. Djurayev R. H. Ta‘limda interfaol texnologiyalar. – T., 2010. – 87 b.